

FARIDUDDIN ATTOR OBRAZINING YARATILISHI

Buriyeva Shaxnoza Alisher qizi

Termiz davlat universiteti

Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi magistri

Termiz, O‘zbekiston.

+99894 894 01 19

sh.b.alisherovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvuf allomalari orasida o‘zining ilmiy merosi va tasavvuf shayxlari haqidagi asarlari bilan buyuk mavqega ega bo‘lgan Fariduddin Attor obrazining yaratilishi haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, mutafakkirning faoliyati va asarlari bilan bog‘liq ma‘lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: nujum, hay’at, tavhid, irfoniy, Kadakon, tafsir, hadis.

XII asrda Osiyoda tasavvufning shakllanishi uni yuksak darjada ma‘rifiy dasturga aylantira olgan ilm egalari nomi bilan bog‘liqdir. Ulardan biri Nishopurlik Farididdin Attordir. Farididdin Attor o‘zining yuksak ilmi va irfoniy hikmatlari bilan tasavvuf olamida beqiyos o‘rin egallaydi. O‘z davrida va bugungi kunga qadar bu mutafakkirning hayoti va ijod yo‘li tadqiq etib kelinmoqda. Shuningdek, tasavvuf allomlarining obraz sifatida shakllanish jarayoni ular haqidagi aniq va asosli ma‘lumotlarni ifoda etishi ko‘zda tutilsa, Farididdin Attorning tasavvuf olamida tutgan o‘rni va asarlarida ilgari surilgan ta‘limot u haqida yozilgan asarlar orqali anglashiladi.

Farididdin Abuhamid ibni Abubakr Ibrohim taxminan 1145-yilda Nishopurning Kadakon qishlog‘ida (Davlatshoh Samarcandiyning fikriga ko‘ra Shodyohta) tug‘ilgan. Otasi attor bo‘lishiga qaramasdan bolaligi ilm ahli davrasida kechadi. Bir she‘rida hatto “Otam huzuriga ba‘zan besh yuz to‘planardi” deya ma‘lumot beradi. Farididdin Attor bilimlarning poyasini “fiqh, tafsir va hadis tashkil etadi” degan bo‘lsa-da, Nishopur va Mashhad madrasalarida tahsil ko‘rib, nujum, hay’at, tabobat, falsafa, mantiq kabi bilimlarda ham kamolot kasb etgan, zabardast shoir, olim, xattot, mashoyix darajasiga etadi. Do‘kond a attorlik kasbi bilan vaqt o‘tkazib, ilim-u irfon bilan ham mashg‘ul bo‘ladi. Bu xususda Attorning o‘zi “Xusravnoma”, “Ilohiynoma” va “Musibatnoma” nomli asarlarini attorlik do‘konida yozganligini tilga oladi.(2-2536)

Uning hayoti haqida ma‘lumot bergen ilk mutasavvuflardan biri Abdurahmon Jomiy Farididdin Attorning Najmiddin Kubrodan ta‘lim olgan Majididdin Bag‘dodiyning muridlaridan biri bo‘lganligini yozadi.(3-28) Ba‘zi tadqiqotchilar esa Hazrati Attor

hayotining bir qismini tariqat darveshlari kabi yo‘lda o‘tkazganligi, Makkadan Movarounnahrga qadar bir qancha shayxlarni ziyorat qilganligi va ayni shu vaqtarda Majididdin Bag‘dodiy hizmatiga kirib, murid bo‘lganligi, Rukniddin Is’hoq va Qutb Haydardan ta‘lim olganligini ta‘kidlaydilar. U shuningdek, Shayx Abu Said Abu-Hayr, Xoqoniy, Sanoi, Nizomiy, Rudakiy va Nosir Xusravning so‘zlarida ham ta‘sirlangan.

Istiqlol davri nasriga tasavvuf namoyondalaridan bo‘lgan Fariduddin Attor obrazi Abdumatal Abdullaev “Hazrat Attor” ma‘rifiy qissasi orqali olib kirgan.(6-7) Ushbu ma‘rifiy qissa ilk bor “Sharq yulduzi” jurnalining 2011 -yildagi 5-6 sonlarida nashr etilgan. Fariddudin Attor barchamizga ma‘lum va mashhur bo‘lgan Alisher Navoiy sevib mutolaa qilgan hamda yod olgan “Mantiq ut-tayr” asari va “Pandnoma” asarlarini muallifidir. Asarlarida tasavvufni targ‘ib qilgan va o‘zi ham shu yo‘lda bo‘lgan. Fariddun Attor falsafasi(g‘oya)ni assosini Allohning yagonaligini tan olish, yakka deb bilish, hech kimni unga sherik qilmaslik, olamlar Robbisi deya faqat faqat ungagina ibodat qilish, insonning mutlaq Ruh tomon intilishi (Fanda Tavhid deyiladi) bo‘lgan.Fariduddin Attor qalamiga mansub asarlar: “Bulbulnom”, “Mantiq ut-tayr”, “Ushturnoma” (bu asarlari ramziy-allegorik timsollar asos hisoblanadi) “Javhar uz-zot”, “Xayloj”, “Asrornoma”, “Sharh ul-qalb”, “Musibatnom” kabi dostonlari (bu dostonlari esa bevosita muhokama-mushohada, fikriy-shuuriy bayonlar tarzida yozilgan).

Fariduddin Attor ijodiyotining katta qismini tasavvufiy mavzu tashkil etgan. Shu bois, uning mavqeyi tasavvuf adabiyotida yuksak sanaladi. Afsuski, shoir mutasavvif bo‘lgani sababli, sobiq Sho‘ro davrida uning asarlarini o‘rganishning imkoniyati yo‘q edi. Istiqlol sharafati sababli, Attor asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilana boshlandi. Xusan, adabiyotshunos olim Najmaddin Komilov tomonidan Attorning “Ilahiynoma” asarining nasriy bayonini o‘zbek tilidagi tarjimasini kitob holatida nashr qildi. Kitobda shoirning hayotiga oid keng ma‘lumot berish bilan bir qatorda ijodi va tasavvufiy qarashlarini ham kirish qismida ifoda etdi. Shuningdek, Mirzo Kenjabek tomonidan “Tazkirat ul-avliyo” asari turk tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, kitob holatida keng kitobxonlar e‘tiboriga havola etildi. Shoir fors adabiyotida mashhur ruboiynavislardan biridir. Farididdin Attorning “Muxtornoma” asarida jami 5000 ta ruboysi borligi ma‘lum. Afsuski, shoirning bizgacha faqatgina 2279 ruboysi yetib kelgan bo‘lib, Eronda bu to‘plam nashr qilingan.

Ruboiylardagi asosiy mavzusi tasavvufiy ruhda bo‘lib, ularda Ollohn ni sevish, ilohiy ishqni tarannum etgan. Shuningdek, nafs bilan kurash olib borish va bu borada kamol inson bo‘lishga intilish, faqirlikni ulug‘lash kabi masalalar yoritilgan. Attorning ba‘zi ruboiylarida ishq yo‘lida ma‘shuqaning shakli-shamoyili hamda uning hijronida kuyish, ayrılıqdagi fig‘onlar ham qalamga olinadi. Shoirning ruboiylarini o‘qish orqali ilohiy ishqning pokligini, ruhiyatni tozalini his qilish mumkin. Nafsdan holi bo‘lgan ishq tarannumi insonni

boshqa olamga ya‘ni ruh olamiga olib kiradi. Ruboiylardagi so‘z qo‘llash mahoratining nafosati ham kishini hayratga soladigan darajada qo‘llanganini guvohi bo‘lasiz.

Fariduddin Attor asarlarida asosan tasavvuf mavzudagi g‘oyalarni targ‘ib-tashviq etgan hamda Mansur Halloj, Boyazid Bistomiy ta’limotiga oid fikrlarni xalq orasida yoygan. Shoir ijodidagi falsafaning o‘zagini tayhid ya‘ni Ollohnning tanholigini e‘tirof etish ilmini bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Bu jarayon tayhid faqatgina Ollohnning bittaligini e‘tirof etish bilan tugamaydi ya‘ni unda inson ruhini Olloh bilan birlashishi va bunga intilish tashkil etadi.

Demak, Fariduddin Attor obrazi shayxning tiriklik davridayoq shakllanib, qayd etila boshlagan. Mutasavvufdan qolgan ulkan ilmiy meros, tasavvuf shayxlari haqidagi ma‘lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarlar orqali tasavvuf allomlarining obraz sifatida shakllanish jarayoni ular haqidagi aniq va asosli ma‘lumotlarni ifoda etishi ko‘zda tutilsa, Farididdin Attorning tasavvuf olamida tutgan o‘rni va asarlarida o‘zidan avval hamda o‘z davrida yashab ijod etgan shayxlar, valiyalar haqida ham qiymatli ma‘lumotlar to‘plagan.

Attorning hayoti,
u haqidagi fikrlar,
“hazrati Attor” obrazi haqida

XII asrda Osiyoda tasavvufning shakllanishi uni yuksak darjada ma`rifiy dasturga aylantira olgan ilm egalari nomi bilan bog`liqdir. Ulardan biri Nishopurlik Farididdin Attordir. Farididdin Attor o`zining yuksak ilmi va irfoniy hikmatlari bilan tasavvuf olamida beqiyos o`rin egallaydi. O`z davrida va bugungi kunga qadar bu mutafakkirning hayoti va ijod yo`li tadqiq etib kelinmoqda. Shuningdek, tasavvuf allomlarining obraz sifatida shakllanish jarayoni ular haqidagi aniq va asosli ma‘lumotlarni ifoda etishi ko`zda tutilsa, Farididdin Attorning tasavvuf olamida tutgan o‘rni va asarlarida ilgari surilgan ta`limot u haqida yozilgan asarlar orqali anglashiladi.

Qaysi asarlarda uning obrazi bore di?

Farididdin Abuhamid ibni Abubakr Ibrohim taxminan 1145-yilda Nishopurning Kadakon qishlog`ida (Davlatshoh Samarcandiyning fikriga ko`ra Shodoxyhta) tug`ilgan. Otasi attor bo`lishiga qaramasdan bolaligi ilm ahli davrasida kechadi. Bir she`rida hatto “ Otam huzuriga ba`zan besh yuz to`planardi” deya ma`lumot beradi. Farididdin Attor bilimlarning poyasini “ fiqh, tafsir va hadis tashkil etadi” degan bo`lsa-da, Nishopur va Mashhad madrasalarida tahsil ko`rib, nujum, hay`at, tabobat, falsafa, mantiq kabi bilimlarda ham kamolot kasb etgan, zabardast shoir, olim, xattot, mashoyix darajasiga etadi.[Tasavvuf allomalar] Do`konda attorlik kasbi bilan vaqt o`tkazib, ilim-u irfon bilan ham mashg`ul bo`ladi. Bu xususda Attorning o`zi “Xusravnomha”, “Illohiynoma” va “Musibatnoma” nomli

asarlarini attorlik do`konida yozganligini tilga oladi.[Attar, Feriduddin Muhammed b. Ibrohim-i Nisaburi.(2536) Divan-i Attar-i Nisaburi(nsr. Ferheng u kalem) Tahan: Farheng u kalem.] Asarlaridan ma`lumki,

Uning hayoti haqida ma`lumot bergen ilk mutasavvuflardan biri Abdurahmon Jomiy Farididdin Attorning Najmaddin Kubrodan ta`lim olgan Majididdin Bag`dodiyning muridlaridan biri bo`lganligini yozadi[Fatma Kopuz Cetinkaya. Feriduddin Attar ve bir gazelinin incelemesi.28] Ba`zi tadqiqotchilar esa Hazrati Attor hayotining bir qismini tariqat darveshlari kabi yo`lda o`tkazganligi, Makkadan Movarounnahrga qadar bir qancha shayxlarni ziyorat qilganligi va ayni shu vaqtarda Majididdin Bag`dodiy hizmatiga kirib, murid bo`lganligi, Rukniddin Ishoq va Qutb Haydardan ta`lim olganligini ta`kidlaydilar.[Attar,2536, 7 asarda ham bor asosla] U shuningdek, Shayx Abu Said Abu-Hayr, Xoqoniy, Sanoi, Nizomiy, Rudakiy va Nosir Xusravning so`zlarida ham ta`sirlangan. Attor nega do`konni yopib tasavvuf yo`liga kirdi asarda bor asosla)

Bahovuddin Muhammad o`g`li Mavlono kichik yoshdaligida Iroqqa safar qilganligi va safari davomida Nishopurda Shayx Attorning yoniga borganligi va buyuk mutafakkirning “Asrornoma” ning bir nusxasini yosh Mavlonoga bergenligi haqida ma`lumot berilgan.[Fatma Kopuz Cetinkaya. Feriduddin Attar ve bir gazelinin incelemesi.28]

Farididdin Attor asarlarida irfoniy tushunchalarni ifoda etarkan turli tamsillardan, mavzuga oid hikoyalardan foydalanib, sufilarining asl maqsadini insonlarga sodda, tushunarli, va aniq holda tavsiflaydi.[Safa. Z, Tarih-i Edebbiyat der Iran,I-VIII.Tahan: Intisarat-i Firdovs 1386, 859] Attor tasavvufning asosi bo`lgan tariqat, ma`rifat va haqiqatni talab, ishq, ma`rifat, istig`no, tawhid, hayrat va fanodan iborat bosqichlari bilan ifoda etadi.unga ko`ra oshiq jonini otashda kul qilgan parvona kabidir. Ishqi va otashi bo`lmaning insonning o`lgani yaxshiroqdir.

Shuningdek, “Mantiq ut-tayr” va “Musibatnama” asarlarida ifoda etganidek, solik ilohiy javharni o`zida butunlay his qilish uchun har qanday zahmat va iztiroblar bardosh beradigan ishq bilan uzun bir safarga chiqadi. Butun olamni (ko'inotni) falokat va to`siqlarga to`la yeti vodiyni kezib, izlaganini o`zida ekanligini (qalbida) anglaydi.[Sahinoglu.M.N, Attar, Feriduddin.Istanbul: Turkiye Diyanet Vakfi islam Ansiklopedisi.1995, IV, 96]

Farididdin Attor (taxallusi; asl ism sharifi Muhammad Abu Bakr ibn Ibrohim; taxminan 1148/51, Nishopur — 1219/21) — mutasavvif fors shoiri. Asarlarida tasavvufni targ`ib qilgan. Mansur Halloj, Boyazid Bistomiylar ta`limotidagi g`oyalarni davom ettingan. Attor falsafasining asosini tawhid (Allohning yagonaligini tan olish) ilmi tashkil etadi. Unga ko`ra, tawhid faqat Allohning yagonaligini tan olish emas, balki u bilan qo'shilishga intilish, ya'ni insonning mutlaq Ruh tomon intilishini anglatadigan jarayondir. Attorning „Bulbulnom“a, „Mantiq ut-tayr“, „Ushturnoma“ asarlari ramziy-allegorik timsollar asosida

yozilgan. „Javhar uz-zot“, „Xayloj“, „Asrornoma“, „Sharh ul-qalb“, „Musibatnama“ kabi dostonlari bevosita muhokama-mushohada, fikriy-shuuriy bayonlar tarzida bitilgan. Bundan tashqari, „Xusravnom“-ga o‘xshab majoziy ishqni kuylagan romantik-sarguzasht asari ham bor. Attorning 2 qismdan iborat „Javhar uz-zot“ asarida butun ruhiy va moddiy olamlar yagonaligi ta’riflangan. Illo har bir zarrada mavjud, ammo uni oddiy ko‘z bilan ko‘rish mumkin emas. Alloh o‘z borlig‘ida ham pinhonu ham paydo, barcha ashyolar yolg‘iz javhardan kelib chiqqan. „Asrornoma“da bu fikr yanada aniqroq ifodalangan. Attor asarlarida xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalangan. „Mantiq ut-tayr“ (1175, bu asar „Maqomoti tuyur“ deb ham nomlangan) asari mashhur. Alisher Navoiy bolalik chog‘ida bu dostonni yod olib, uning ta’sirida „Lison ut-tayr“ („Qush tili“) dostonini yozgan. Ushbu asar tasavvufning eng yirik adabiy yodgorligi hisoblanadi. Bundan tashqari, Attor „Pandnoma“, „Besarnoma“, „Devon“, "Vuslatnoma, " „Tazkirat ul-avliyo“ kabi asarlar muallifi. Uning „Ilahiynoma“ asari ham masnaviy yo‘lida bitilgan ishqiy-ma’rifiy, falsafiy-axloqiy dostondir. Masnaviyda 282 ta rivoyat, hikoyat va qissalar bayon etilgan. Attor Haq va haqiqat tushunchalarini hamma vaqt inson mohiyatiga bog‘lab tushuntirgan. Zero, tavhid mohiyati ham, haqiqat ham oxir oqibat inson mohiyati va haqiqati bilan izoxlangan. Shoirning 96 bobdan iborat „Tazkirat ul-avliyo“ asari nasrda bitilgan yagona va mashhur asar bo‘lib, unda tasavvuf shayxlari, avliyouolloxlarning hayoti, kashfu karomatlari bayon etilgan. Asarning O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutida 10 dan ziyod qo‘lyozma nusxalari, Bombay va Lohurda 1877, 1887, 1895, 1900, 1903-yillarda nashr qilingan bosma nusxalari hamda Xojashoh ibn Sayyid Axmad Xorazmiy o‘zbek tiliga tarjima qilgan 4 qo‘lyozma nusxasi mavjud. Ushbu asarning Mirzo Kenjabek tomonidan o‘zbekchaga qilingan tarjimasi „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ davlat ilmiy nashriyotida chop etilgan (1997)

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Abduxalimov B. Baytu-l-hikma va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati: IX-XI aniq va tabiiy fanlar.- Toshkent, Toshkent islam universiteti nashriyoti, 2004-B.209-236.
- 2.(2536) Divan-i Attar-i Nisaburi(nsr. Ferheng u kalem) Tahran: Farheng u kalem
- 3.Fatma Kopuz Cetinkaya. Feriduddin Attar ve bir gazelinin incelemesi.-28 s
- 4.Adabiyot nazariyasi. II tom. - T.: Fan, 1978. - 448 b.
- 5.Ahmad.A, Nurilloh.I. Qur’oni karimning mashhur suralari fazilati.-Toshkent: “G’afur G’ulom nomidagi” nashriyot,2021.-672 b

6.Abdumutal Abdullayev. "Hazrati Attor" ma'rifiy qissa. "Sharq yulduzi" jurnali,5-6-sonlar. 2011-y.-123 b

7.Farididdin Attor. "Tazkirat ul-avliyo" asari muqaddimasidan.-464 b

8.Abdurahmon Jomiy.Nafohot ul-uns tarjimasi.-Toshkent:Fan, 2004

9.<https://Naqshband.uz>

10.<https://kh-davron.uz>

11.<https://xs.uz>

12.<https://Forum.Ziyouz.com>